

Chiziqli dasturlar tuzish

1. Paskalda chiziqli dastur nima?

Odatda, chiziqli algoritmlarning dastur shaklida yozilishi chiziqli dastur deb ataladi.

O'tish operatori

1. Paskalda nishon nima uchun kerak?

Paskal dasturida nishon boshqarishni dastur bo'yicha orqaga yoki oldinga o'tkazish uchun kerak.

2. Nishonlarda qanday sonlar ishlatilishi mumkin?

Nishonlarda butun va 0 dan 9999 gacha bo'lgan sonlar ishlatilishi mumkin.

3. Dasturda qo'llaniladigan nishonlar dasturning tavsif qismida qaysi xizmatchi so'z yordamida ko'rsatilishi shart?

*Dasturda qo'llaniladigan nishonlar dasturning tavsif qismida **Label** xizmatchi so'zi yordamida ko'rsatilishi shart.*

4. Paskalda GOTO qanday operator?

*O'tish operatori bo'lib, boshqarishni dasturning oldiga **nishon** qo'yilgan operatoriga uzatadi.*

Tarmoqlanish operatori

1. Tarmoqlanish operatorining umumiy shakli qanday?

***If** <shart> **Then** <operator yoki operatorlar> **Else** <operator yoki operatorlar>; Bu yerda if, then va else Paskalning xizmatchi so'zlari bo'lib, ularning o'qilishi va ma'nosi quyidagicha: **If** (if) - agar, **Then** (zen) - u holda, **Else** (elz) - aks holda. Odatda, <shart> rost yoki yolg'on qiymatlardan birini qabul qiluvchi mantiqiy ifoda; <operator yoki operatorlar> Paskalning ixtiyoriy operatori yoki operatorlari ketma-ketligidir. Shuni yodda tutingki, **Else** xizmatchi so'zidan avval yozilgan operatordan keyin ";" nuqtali vergul qo'yilmaydi.*

2. Tarmoqlanish operatorining qanday ishlashini tushuntiring. Avval shart tekshiriladi, agar uning qiymati **rost** bo'lsa, **then** dan keyingi operator yoki

*operatorlar ketma-ketligi, aks holda **else** dan keyingi operator yoki operatorlar ketma-ketligi bajariladi.*

3. **Agar Then yoki Else so 'zlaridan keyin bajarilishi lozim bo'lgan ikki yoki undan ortiq operatorlar ketma-ketligi yozilgan bo 'lsa, bu operatorlar ketma-ketligi qanday xizmatchi so 'z bilan boshlanishi kerak?**

***Begin** xizmatchi so'zi bilan boshlanib, **end** xizmatchi so'zi bilan tugashi lozim.*

4. **Tarmoqlanish operatorining qisqa shakli qanday?**

***If** <shart> **Then** <operator yoki operatorlar>;*